

## 6-SINF ADABIYOT DARSLIGIDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘QITILISHI

*Laylo Fayzullayeva  
Durdona Baxriyeva*

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi, xalq qo‘shiqlarining ma‘naviy meros ekanligi, xalq og‘zaki ijodida o‘zbek xalqining an‘ana va qadriyatlari yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** folklor, xalq og‘zaki ijodi, xalq qo‘shiqlari, urf-odat, suz xotin, Omonyor, yor-yor, boychechak, alla, vatanparvarlik.

**Аннотация:** В реферативных статьях освещены духовное наследие фольклора, народные ложки, традиции и ценности узбекского народа в фольклоре.

**Ключевые слова:** фольклорный фольклор, народные ложки урф - обычай, вода, жена, белый тополь

**The Annotation:** In the abstract articles, the spiritual heritage of folklore folk spoons, the traditions and values of the Uzbek people are highlighted in folklore.

**Keywords:** folklore folklore, folk spoons custom, water, wife, white poplar

Bugungi kunda ijtimoiy hayotda ko‘plab o‘zgarishlar yuz berayotgan bir paytda, xalqning ma‘naviy dunyoqarashini yuksaltirishda ma‘naviy tarbiyaning ahamiyati katta. Texnologiyalar davrida xalqning ma‘naviy dunyosi va o‘zligini saqlab qolish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari – xalq ertaklari, qo‘shiqlar, maqollar, topishmoqlar dastlab og‘zaki shaklda paydo bo‘lgan va avloddan avlodga o‘tib, bugunga qadar yetib kelgan. Ular biror-bir yagona shoir yoki yozuvchi tomonidan emas, balki xalq tomonidan yaratilgani uchun ham “xalq og‘zaki ijodi” deb ataladi. “Xalq og‘zaki ijodi” atamasi o‘rnida “folklor” (inglizcha “folk” – “xalq”, “lore” – “donolik”) so‘zini ham qo‘llash mumkin.

Xalq qo‘shiqlari xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi shakllaridan biridir. Ayrim qo‘shiqlar kattalar tomonidan kattalar davrasida ijro etilgan bo‘lsa, ayrimlari bolalar

uchun aytilgan (masalan, “alla”), ayrimlari esa bolalar tomonidan kuylangan. Misol uchun:

Tokchaga bug‘doy sepuvdim,  
Undimikin-o, undimikin?  
Mashrabboy uydan chiqmaydi,  
Yotdimikin-o, yotdimikin?

O‘zbek xalq qo‘shiqlarini “Mehnat qo‘shiqlari”, “Mavsum-marosim qo‘shiqlari”, “Lirik qo‘shiqlarga” ajratish mumkin.

6-sinf adabiyot darsligida asosan, lirik qo‘shiqlar berilgan. Darslikda “Hovodagi hulkarman”, “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Omonyor”, “Yor-yor”, “Boychechak”, “Alla” kabilar o‘rin olgan va o‘quvchilar yoshiga mos xalq qo‘shiqlari tanlangan.

– Oq terakmi, ko‘k terak?  
– Bizdan sizga kim kerak?  
– Gul terdik dasta-dasta,  
Bir-biriga payvasta.  
Bizga kerak odobli,  
A‘lochi qiz Shohista!

O‘quvchilarga “ – Oq terakmi, ko‘k terak?” qo‘shig‘i juda tanish. Chunki ular buni harakati o‘yin shaklida ham o‘ynashgan. Bu qo‘shiqni o‘qitishda “Chaynvord” metodidan foydalanish yaxshi samara beradi.

Chaynvord-zanjir shaklida ketma-ket joylashgan kataklarni harflar bilan to‘l-dirishdan iborat boshqotirma turi; bunda qidirilayotgan so‘zlar qatoridagi avvalgi so‘zning oxirgi harfi keyin keluvchi so‘zning birinchi harfi bo‘lib kelishi talab qilinadi.

Terak-kerak-kim-maktab-bizga-a‘lochi...shaklida davom ettiriladi.

Boychechagim boylandi,  
Qozon to‘la ayroni.  
Ayroningdan bermasang,  
Qozon-tovog‘ing vayronidir.  
Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,  
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Ushbu “Boychechak” qo‘shig‘i xalqimizning tarixi, urf-odatlari bilan bog‘liq. “Boychechak” qo‘shig‘ini o‘quvchilarga qo‘shiq qilib aytishni so‘rash kerak. O‘quvchilar uchun qiziqarli, esda qolarli bo‘ladi. Chunki “Boychechak” qo‘shig‘i musiqiyliigi, so‘zlarining osonligi, ravonligi bilan ajralib turadi. Keyin uyda boshqa xalq qo‘shig‘ini yodlab xuddi shunday kuyga solib kelish topshirig‘i berilsa, o‘quvchilar qiziqish bilan bajarib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi-so'z san'atidir. "Xalq og'zaki ijodi-so'z san'ati" deganimizda, shuningdek, ertakchi, baxshi, qo'shiqchi, askiyaboz, latifachi ijrochilarning tinglovchilarga bag'ishlayotgan ma'naviy lazzatini unutmazlik lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablaring 6-sinf darsligi asosida yangi nashr. Toshkent-2022.
2. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent 2010.
3. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent 1980.